

**KUZGI BUG'DOY RIVOJLANISH FAZALARINING O'TISH
DAVOMIYLIGIGA TURLI MARKALI AMMONIYLASHGAN ODDIY
SUPERFOSFAT O'G'ITLARINING TA'SIRI.**

**ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МАРОК АММОНИЗИРОВАННЫХ
ПРОСТЫХ СУПЕРФОСФАТНЫХ УДОБРЕНИЙ НА
ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ПЕРЕХОДА ФАЗ РАЗВИТИЯ ОЗИМОЙ
ПШЕНИЦЫ.**

**THE EFFECT OF DIFFERENT BRANDS OF AMMONIATED SIMPLE
SUPERPHOSPHATE FERTILIZERS ON THE TRANSITION DURATION
OF WINTER WHEAT DEVELOPMENT PHASES**

Po'latov Fozilxon Ergash o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
O'simlikshunoslik, soya va moyli ekinlar kafedrasida assistenti.*

Ahmadjonova O'g'iloy Akmal qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

UOT: 633.111.1; 631.855

***Annotatsiya:** O'tloqi tuproq sharoitida kuzgi bug'doy rivojlanish fazalarining o'tish davomiyligiga turli markali ammoniylashgan oddiy superfosfat o'g'itlarining ta'siri.*

***Аннотация:** Влияние различных марок аммонизированных простых суперфосфатных удобрений на продолжительность перехода фаз развития озимой пшеницы в условиях пастбищной почвы.*

***Annatation:** The effect of different brands of ammoniated simple superphosphate fertilizers on the transition duration of winter wheat development phases under the conditions of grassland soil.*

***Kalit so'zlar:** kuzgi bug'doy, rivojlanish fazalar, mineral o'g'it, ammoniylashgan oddiy superfosfat, rivojlanish davrlari, maysalash, tuplash, www.tadqiqotlar.uz*

6-to'plam 1-son aprel 2024

naychalash, boshoqlash, gullash, pishish.

Ключевые слова: *повторный посев, арахис, сроки посадки, критерии посадки, сроки развития, всхожест, ветвление, цветение, бобообразование, созревание.*

Key words: *repeated planting, peanut, planting time, planting criteria, development periods, germination, branching, flowering, pod formation, ripening.*

Dunyo bo'yicha bugungi kunda bug'doy 220,4 mln. gektar maydonga ekilib, o'rtacha don hosili gektariga 30-35 sentnerni tashkil qiladi. Xalqaro qishloq xo'jalik va oziq-ovqat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo mamlakatlarida 2022 yilda 751 mln tonna bug'doy doni yetishtirish rejalashtirilgan bo'lib, keyingi o'n yillikda bu ko'rsatkich aholi sonining o'sishi bilan birga don va un mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun 6,6% yoki 59,7 mln. tonna ko'proq hosil yetishtirishni taqozo etadi.

Bir qancha olimlar bug'doy urug'ini unib chiqishi uchun 1-3⁰C, maysalar to'la paydo bo'lishi uchun esa 5-6⁰C kifoya deb ta'kidlasalar, ko'pchilik olimlarning aniqlashlaricha kuzgi bug'doy urug'ini to'liq unib chiqishi uchun eng maqbul harorat 12-18⁰C hisoblanadi. Dala sharoitida kuzgi bug'doy urug'i maqbul muddatlarda ekilganda o'rtacha sutkalik harorat 12-16⁰C bo'lganda unib chiqadi. Shuningdek kuzgi bug'doy 10 foiz birinchi barg chiqarganda va 75 foiz unib chiqqanda to'liq unib chiqqan deb qabul qilinishi ham olimlarimiz tomonidan aniqlangan.

Ko'pchilik olimlarning fikricha bug'doy urug'i bo'rtish holatidan una boshlash holatiga o'tishi uchun urug'ni yirik-maydaligi va tuproq iqlim sharoitini hisobga olgan holda, urug'ning quruq massasiga nisbatan urug' tomonidan 50-55% namlik o'zlashtirilishi zarur. Don tarkibidagi namlik ortishi bilan maqbul havo haroratida urug' tarkibidagi biokimyoviy va fiziologik jarayonlar boshlanib, fermentlar ta'sirida urug' tarkibidagi organik birikmalar ya'ni oqsillar, yog'lar va uglevodlardan kraxmal suvda eriydigan xolatga o'tib, asta sekin urug' murtagiga to'planadi. Namlik ta'sirida endospermadan urug' murtagiga oziq moddalar o'tadi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

natijada murtak ildizchasi va boshlang'ich bargi o'sa boshlaydi. Urug' murtakdagi birinchi ildizcha urug' qobig'ini teshib tuproqda chuqurlikka qarab o'sadi, boshlang'ich urug' bargcha esa uning qarama-qarshi tomonidan tuproq yuziga chiqadi. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin ikkinchi va uchinchi ildizcha hosil bo'ladi. Kuzgi bug'doy urug'i bo'rtishidan unib chiqqunga qadar foydali harorat yig'indisi 120⁰C bo'lishi kerak. Agarda sutkalik harorat 10⁰C bo'lsa ekilgan kuzgi bug'doy navlarining urug'i 12 kunda, 20⁰C bo'lganda esa 6 kunda unib chiqadi. Ekilgan kuzgi bug'doy navlarining urug'ini unib chiqishi uchun havo harorati, urug'ni ekish chuqurligi va muddati, tuproq namligi va uning fizik holatiga qarab 7-25 kun kerak bo'ladi. Agarda yuqoridagi omillar yetarli darajada bo'lmasa ekilgan kuzgi bug'doyni unib chiqishining kechikishi, pirovardida hosildorlik keskin kamayishi ham olimlarimiz tomonidan ta'kidlangan (R.Siddiqov [B. 205]).

1-jadval

Fazalar o'tish davomiyligi (qaytariqlar bo'yicha o'rtacha)

O'zbekistonda ishlab chiqariladigan superfosfat turli markalari samaradorligini baholash

№	Variant	Fenologik fazalar										Pishguncha o'tgan davr
		Maysalash			Naychalash boshlanishi	boshloqlash		gullash	Pishish			
		boshlanish	qiyg'os unib tuplanish	Boshlanish		To'la boshloq	sut		mum	To'la		
1	Oltin ASSP	11.	15.	20.	20.	13.	18.	22.	08.	20.	05.	241
		10	10	11	03	04	04	04	05	05	06	
2	Navoi azot ASSP	13.	17.	30.	25.	18	24.	28.	12.	24.	08.	246
		10	10	11	03	4	04	04	05	05	06	

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

3	Farg'ona azot	12. 10	16. 10	26. 11	24. 03	17. 04	23. 04	27. 04	11. 05	23. 05	08. 06	244
4	Kon trol	14. 10	19. 10	05. 12	01. 04	23. 04	26. 04	29. 04	14. 05	26. 05	15. 06	251

Indorama zavodida ishlab chiqarilgan “Oltin” ammoniyashtirilgan oddiy superfosfat o‘g‘iti tuproq testiga ko‘ra $N_{250}P_{132}K_{60}$ qo‘llanilganda huddi shu nisbatda qo‘llanilgan Farg‘ona va Navoiy zavodlarida ishlab chiqarilgan oddiy superfosfat o‘g‘itiga nisbatan kuzgi bug‘doyning rivojlanish davri mobaynida fazalar o‘tish davomiyligi quyidagi 3.1.1-jadvalda aks etdi. Unga ko‘ra Indorama zavodida ishlab chiqarilgan “Oltin” ammoniyashtirilgan oddiy superfosfati qo‘llanilgan birinchi variantda ekishdan to pishishgacha o‘tgan davr 241 kunni tashkil etgan holda, Navoiyazot ASSP va Farg‘onaaazot ASSP qo‘llanilgan mos ravishda ikkinchi va uchinchi variantlarga va fosforli o‘g‘it qo‘llanilmagan nazorat variantiga nisbatan 3-5 kun ertaroq kechishi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Atabaeva H.N., Xudayqulov J.B. O‘simlikshunoslik. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent: 2018. Darslik.
- 2 Siddiqov R.I. O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlarida kuzgi bug‘doydan mo‘l va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyasining ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent, 2015.- B.40, 205,271.
- 3 R.O.Oripov, N.Halilov O‘simlikshunoslik. Faylasuflar jamiyati. Toshkent 2007-yil.
- 4 F. Pulatov. THE INFLUENCE OF PEANUT DATE AND SCHEMES ON PLANT THICKNESS Экономика и социум 2023 Б 294-296